

QARSHI CHO'LINING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

R.Usmanova – Qarshi davlat universiteti dotsenti

F.Rajabova – Qarshi davlat universiteti talabasi. O'zbekiston.

Annotatsiya. Maqolada Qarshi cho'lining geografik o'rniga va relyef xususiyatlariga oid izlanish olib borgan olimlarning qarashlari haqida yoritib o'tilgan. Hududning chegaralarining ayrim tadqiqotchilar tomonidan berilgan fikrlari tahlil qilingan va hududning geomorfologik jihatlari bayoni keltirilgan.

Kalit so'zlar. geografik o'rni, relyef, qir, adir, tekislik, eroziya, cho'l, qurg'oqchil, havza,okrug.

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПУСТЫНИ КАРШИ

Р.Усманова – доцент Каршинского государственного университета

Ф.Ражабова – студентка Каршинского государственного университета. Узбекистан

Аннотация. В статье освещаются взгляды ученых, проводивших исследования географического положения и особенностей рельефа пустыни Карши. Были проанализированы мнения некоторых исследователей о границах территории и приведено описание геоморфологических аспектов территории.

Ключевые слова. географическое положение, рельеф, гребень, холм, равнина,эрозия, пустыня, засуха, бассейн, округ.

GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE KARSHI DESERT

R.Usmanova – Associate Professor, Karshi State University

F.Rajabova – Student, Karshi State University. Uzbekistan

Abstract. The article highlights the views of scientists who conducted research on the geographical location and relief features of the Karshi desert. The opinions of some researchers on the boundaries of the Territory were analyzed and the geomorphological aspects of the territory were described.

Key words. geographical location, relief, ridge, hill, plain,erosion, desert, drought, pool, county.

Kirish. YUNESKO (BMT)ning arid zonalarni tadqiq etish bo'yicha olib borgan komissiyasining faoliyati cho'llarni o'rganish bo'yicha ancha katta ilmiy natijalarga erishdi. Ushbu komissiya Xalqaro geografiya uyushmasi bilan hamkorlikda jahonning qurg'oqchil hududlarini o'rganish va o'zlashtirishning eng muhim muammolariga bag'ishlangan qator ilmiy anjumanlar (1951-yildan boshlab)ni o'tkazib kelmoqda. Sir emaski, O'rta Osiyoning markazida joylashgan

Qarshi cho'li ham dunyoning arid hududlaridan biri. Hozirgi iqlim o'zgarishi sharoitida Qarshi cho'li landshaftlarida qator muammolar yuzaga kelishi uning tabiatida ham aks etayotganligi tufayli hududda ro'y berayotgan bu o'zgarishlarni tadqiq etish dolzarbdir.

Asosiy qism. O'zbekistonning janubiy qismini ishg'ol etuvchi hududlardan biri Qashqadaryo havzasidir. Geolog, geograf kabi soha olimlari tomonidan Qashqadaryo havzasi geologik tuzilishining tarixiy rivojlanishi bosqichlari davomida o'ziga xos relyef hosil qiluvchi omillarning ta'siri va yer yuzasining qiyofasi hamda geomorfologik xususiyatlari bo'yicha 3 ta yirik geomorfologik mintaqaga bo'linadi. Havzani tadqiq qilish davomida tog', tog' oldi va tekislik geomorfologik mintaqaga bo'linishiga amal qilingan.

Professor O.Y. Poslovskaya (1959) Qashqadaryoning uchta mintaqaga bo'linishini hududning turli geologik rivojlanish va relyefning shakllanish tarixi bosqichlari bilan relyef taraqqiyotining turlicha yo'nalishga ega ekanligi bilan asoslab berganligi bilan ahamiyatlidir [3; C.142-173.].

Tekislik mintaqasi Qashqadaryo havzasining katta g'arbiy qismini o'z ichiga oladi. Mintaqaning asosiy qismi Qarshi cho'lining qiya tekisligi bilan band. Qarshi qiya tekisligi Qizilqum cho'lining janubi – sharqiy chekkasi hisoblanadi (Mamatov, 1994). Mintaqa doirasida absolyut balandliklar 280 m dan 600 m gacha o'zgaradi.

Geologik va geografik adabiyotlarda Qarshi cho'li nomi bilan yuritiladigan Qarshi qiya tekisligi asosan Qashqadaryo havzasida joylashgan. Qarshi cho'lining chegaralari munozarali bo'lib, tadqiqotchilar tomonidan turlicha yondoshishlar natijasida har xil talqin etilgan. Jumladan, bir qator cho'lshunos tadqiqotchilar O'rta Osiyo cho'l hududlarini tabiiy-geografik rayonlashtirish ishlari bilan shug'ullangan M.P.Petrov (1967), A.G.Babayev va Z.G.Freykin (1977), M.Umarov (1964) va boshqalar [2; C.266., 7; C.112.], Qarshi cho'lini Janubiy Qizilqum rayonining bir qismi sifatida ko'rsatadilar (1-jadval). Ba'zi tadqiqotchilar esa Qarshi cho'lga hududiy jihatdan Qarnob cho'lini, Nishon cho'lini va Sandiqli

qumli cho'lini kiritganlar, ayrimlar esa bu cho'lli hududlarni alohida hududlar sifatida tadqiq etish joiz, deb hisoblaydilar.

Qarshi cho'lining hududi Turkmaniston Respublikasining Lebap viloyati va O'zbekiston Respublikasining Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlari doirasida yastanib yotadi. Qarshi cho'li (Qarshi qiya tekisligi) maydonining 9,63 ming km² qismi O'zbekistonda hududiga qarashli bo'lsa, qolgan qismi Turkmaniston hududi doirasida joylashgan. Qarshi cho'li hududining eng katta qismi Qashqadaryo viloyatiga qarashlidir.

1-jadval

Ayrim tadqiqotchilarning Qarshi cho'lining geografik o'rni va chegaralari haqidagi fikrlari

№	Mualliflar	Fikrlari
1.	M.P.Petrov (1967), A.G.Babayev va Z.G.Freykin (1977), M.Umarov (1964) va boshqalar	Janubiy Qizilqum rayonining bir qismi
2.	M. Qoriyev va A. Xisomov (1963)	Qashqadaryoning o'rta va quyi oqimidagi hudud
3.	H. H. Xojiboyev va boshqalar (1975)	Qarshi, Nishon, Jom, Qarnob, Kitob-Shahrisabz botig'i, Sunduqli cho'llar
4.	F.A.Mavlonov va boshqalar. (1974)	esa shimolda Qoratepa, Ziyoviddin-Zirabuloq, Qoratog' tog' etaklari, shimoli-sharqda —Shahrisabz meridiani bo'yicha janubda va janubi-sharqda Hisorning janubi-g'arbiy tarmoqlari va Oloviddin, Duldultov, Qoraqir va Saksondra balandliklari, janubi-g'arbda va g'arbda Turkmaniston bilan O'zbekiston o'rtasidagi chegara bo'yicha o'tkazilgan hudud
5.	I.A.Hasanov (1981)	Qashqadaryoning deltasi egallagan hudud
6.	S.I.Abdullayev, A.Mamatov (1992) va boshqalar	bir qator xususiyatlariga ko'ra Qarshi cho'li Qizilqum va Qoraqum cho'llarini bog'lab turadigan oraliq polosa

*Jadval ma'lumotlar asosida R.Usmanova (2025) tomonidan tuzilgan.

I.Hasanov (1981), S.I.Abdullayev, A.Mamatov (1992) va boshqalar ta'kidlashicha, bir qator xususiyatlariga ko'ra Qarshi cho'li Qizilqum va Qoraqum cho'llarini bog'lab turadigan oraliq polosani hosil qiladi. Ayni paytda bu hudud o'ziga xos individual xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli tabiiy-geografik rayonlashtirishda Qashqadaryo tabiiy geografik okrugining mustaqil, alohida tabiiy-geografik rayoni sifatida qaralishi maqsadga muvofiqligini bayon etganlar.

S.I.Abdullayev va A.Mamatov (1992)larning ta'kidlashicha, umuman Qarshi cho'lining hududi to'g'risida hanuzgacha yakdillik yo'q [7; C.112., 4;94 b.].

Qarshi cho'lining shimolda Ziyoviddin-Zirabuloq tog'larining etaklari, janubiy - sharqda Hisor tizmasi, G'uzor, Dehqonobod past tog'lari bilan g'arbda va janubi-g'arbda Sho'rsoy cho'kmasining shimoliy chekkasi va Devxona hamda Chilgumbaz platolarining etaklari bo'ylab o'tadi. Qarshi cho'lining Kitob-Shahrisabz tektonik botig'i va G'uzor adirlari bilan bo'lgan chegaralari ham relyefda yaqqol ifodalanmagan.

I.Hasanovning ta'kidlashicha, Qarshi qiya tekisligi asosan, Qashqadaryo havzasida joylashgan bo'lib, shimolda Zarafshon tizmasining etaklaridan boshlanadigan, sharqda Kitob-Shahrisabz botig'i, janubiy-sharqda Hisor tizmasi, G'uzor, Dehqonobod past tog'lari bilan chegaralanib, Janubiy-G'arbda va G'arbda Amudaryo o'zaniga Sandiqli cho'li orqali tutashadi.

Cho'lshunos olimlarning ma'lumotlarini tahlil qilish asosida, S.I.Abdullayev, Nazarov M.G.(2020) va A.Mamatov (1992)lar Qarshi cho'li geografik o'rniga ko'ra subtropik mintaqaning materik ichkarisidagi cho'llar zonasiga, gipsometrik sathiga ko'ra tekislik cho'llariga, iqlim sharoitlariga ko'ra arid (quruq) cho'llarga, litologik-edafik va landshaft xususiyatlariga ko'ra asosan gilli va qumli cho'llarga mansubdir, deb ta'kidlashgan [1;133 b., 4; 94 b.].

Qarshi cho'li geomorfologik jihatdan rang-barang. Qarshi cho'li yer yuzasi to'liqsimon tekislikdan iborat bo'lib, relyefi 260-500 m lik gipsometrik sathlar orasida joylashgandir. Ba'zan relyefida qir va adirlar, gohida esa botiqlar uchraydi. Qarshi cho'lining katta qismini alyuvial-prolyuvial tekisliklar tashkil etadi. Jumladan, cho'l relyefning qadimiy tiplaridan qirlar Qo'ng'irtog'da va Saksondara hamda Oloviddintog' qirlarini tashkil etadi. Bu qirlar cho'lning eng baland nuqtalari hisoblanadi. Bundan tashqari Qo'ng'irtog' (571 m), Kosontog' (540 m), Maymanoqtog' (502 m), lar 100-190 metr balandlikda tekislikka nisbatan ko'tarilib turadi. Qarshi cho'lining janubi-sharqida Oloviddintog' (485 m), Do'italitog' (514 m), Qorabuloq (500 m), Aland (400 m), To'ng'izsirt, Qoraqir

qirlar sharq tomonidagi adirlar bilan tutashishshi natijasida cho'lining g'arbiy qismidagi qirlarni hosil qiladi. Ushbu qirlarning absolyut balandligi 400 metr atrofidadir. Olang, Setalantepa, Qorabuloq kabi qirlar yassi yuzali qirlar hisoblanadi. Qarshi cho'lining allyuvial-prolyuvial tekisliklari orasida Charog'il, Dengizko'l, SHo'rsoy, Jalovash va boshqa cho'kmalar mavjud. Muborak shahridan shimoldagi SHo'rsoy, Sandiqli qum cho'lining shimolidagi Dengizko'l botiqlari botqoqlangan sho'rhoklar sifatida ajralib turuvchi tekislik qismi bilan qo'shilib ketgan.

Tashqi jarayonlarga bardoshli qattiq jinsli qatlamlari yer yuzasiga chiqqan joylarga relyefning strukturalari shakllari to'g'ri keladi. Jumladan, Qo'ng'irtog', Maymantog', Qoraxitoy kabi yakka qoldiq tog'lardagi qoyalar shunday strukturali relyef shakllariga xosdir. Shunday jarayonlar natijasida yuzaga kelgan relyef shakllari ayniqsa, Qarshi magistral kanalidan Ko'kdala massivining Jom cho'liga tutash hududlarida uchraydi. Qir va yakka qoldiq tog' etaklarida joylashgan qiya tekisliklarda eroziya jarayonlari ancha keng tarqalganligini uchratish mumkin [5; 132-136 b., 6; C.1090-1095.].

Xulosa. Umuman olganda, relyef sharoitlariga ko'ra Qarshi cho'li hududining katta qismi yassi yoki biroz to'liqsimon bo'lib, absolyut balandlik 260 m dan 500 m oralig'ida o'zgarib boradi. Qarshi cho'li relyefining ushbu xususiyatlari asosida Amudaryodan suv chiqarilib cho'lda sug'orma dehqonchilik maydonlarining kengaytirish uchun eng katta imkoniyatlarga ega bo'lgan yangi yerlar o'zlashtirish hisobiga yirik dehqonchilik rayoni shakllandi. Zero, Qarshi cho'lining o'zlashtirilishi munosabati bilan suv ta'minoti ancha yaxshilandi, sug'oriladigan yerlar maydonlari kengaytirildi. Ammo, ayrim hududlarda o'simlik qoplaminin degradatsiyasi, eroziya, sho'rlanish, botqoqlanish, shamol eroziyasi kabi jarayonlar salbiy ta'siri ortmoqda. Bularni oldini olish tadbirlarini jadallashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdullaev S.I., Nazarov M.G. Qashqadaryo havzasining antropogen landshaftlari va ularning geoeologik holati / Monografiya. Qarshi -2020 y. 133 b.
2. Бабушкин.Л.Н., Когай Н.А. Вопросы географического районирования Средней Азии и Узбекистана. //Научные труды ТашГУ, вып. 231, 1964. Ташкент, с.266

- 3.Пославская.О.Ю. Геоморфология. В кн. "Кашкадарьинская област Том-1. Ташкент. 1959.С.142-173.
4. Қашқадарё вилояти географияси. Қарши, 1994. 94 б.
- 5.Усманова Р. Ўрта Осиё чўлларининг ландшафт хусусиятлари //ҚарДУ хабарлари. Қарши . 2018. № 4. 132-136 б.
- 6.Усманова Р. История изучения ландшафтов бассейна Кашкадарьи. //ИУСЕР Экономика и социум международный научно- практический журнал № 6(109) . 2023 г. www.iupr.ru 1090-1095 с.
- 7.Хасанов И.А. Оценка природных территориальных комплексов Каршинской степи для оросительной мелиорации. -Т.: Фан, 1981 . -С. 112.